

OLIV TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALIGA DAVLAT INVESTITSİYALARINING REAL DINAMIKASI: NOMINAL O'SISH SHAROITIDA INTENSIVLIKNING PASAYISHI

Raximova Saida Rustamovna
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan davlat investitsiyalarining 2024–2026-yillardagi tarkibi va dinamikasi tahlil qilingan. Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar, dasturiy budjet ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ko'rsatkichlari asosida investitsiyalar iste'mol narxlari indeksi yordamida deflyatsiya qilingan. Tahlil natijasida vazirlik tizimiga ajratilgan mablag'lar nominal hisobda 10,1 foizga o'sgani holda, 2024-yil narxlarida 3,6 foizga qisqargani aniqlangan. Bir talabaga to'g'ri keladigan budjet mablag'i real hisobda 17,5 foizga kamaygan, o'quv yuklamasi esa 21,6 nafardan 28,0 nafarga oshgan. Muallif oliy ta'lim investitsiyalarini baholashda nominal hajm o'rniga real intensivlik ko'rsatkichlaridan foydalanishni asoslaydi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, oliy ta'lim, davlat investitsiyalari, deflyator, real dinamika, investitsiya intensivligi, o'quv yuklamasi.

Abstract. The article analyses the structure and dynamics of public investment in the higher education system of Uzbekistan in 2024–2026. Using state budget laws, programme budget data and national statistics, the investment flows are deflated by the consumer price index. The analysis shows that while nominal allocations to the ministry system grew by 10.1 per cent, in 2024 constant prices they contracted by 3.6 per cent. Budget funding per student declined by 17.5 per cent in real terms, while the student–teacher ratio rose from 21.6 to 28.0. The author argues for replacing nominal volume indicators with real investment intensity measures in evaluating higher education funding.

Keywords: human capital, higher education, public investment, deflator, real dynamics, investment intensity, teaching load.

KIRISH

Inson kapitali nazariyasining klassik qoidalariga ko'ra, ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar joriy iste'mol emas, balki kelajakda daromad va mehnat unumdorligining oshishi ko'rinishida qaytadigan investitsiya hisoblanadi (Becker, 1964). Jahon miqyosidagi empirik umumlashmalar ta'limning bir qo'shimcha yiliga o'rtacha xususiy qaytim 9 foizni tashkil etishini, oliy ta'lim darajasidagi qaytim esa o'sib borayotganini ko'rsatadi (Psacharopoulos & Patrinos, 2018). Shu bois oliy ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi mamlakat iqtisodiy siyosatining strategik parametriga aylanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimi jadal kengaydi: tashkilotlar soni, qabul parametrlari va talabalar kontingenti bir necha barobar oshdi. Ushbu jarayon ko'pincha ijobiy natija sifatida talqin qilinadi va tahlillarda budjet mablag'larining nominal o'sishi bilan

asoslanadi. Biroq milliy amaliyotda investitsiyalar hajmini inflyatsiya ta'siridan tozalash hamda kontingent o'sishi bilan qiyoslash amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan. Mavjud tadqiqotlarda budjet mablag'larini natijaga yo'naltirilgan boshqarish zarurligi qayd etilsa-da (Raxmatullayev, 2025), investitsiyalarning real intensivligi bo'yicha miqdoriy baholar keltirilmaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan davlat investitsiyalarining 2024–2026-yillardagi real dinamikasini aniqlash va investitsiya intensivligini o'lchovchi ko'rsatkichlar tizimini asoslashdan iborat. Tadqiqot quyidagi gipotezani tekshiradi. Nominal moliyalashtirishning o'sishiga qaramay, talabalar kontingentining tezroq kengayishi va inflyatsiya ta'siri natijasida bir talabaga to'g'ri keladigan real investitsiya hajmi qisqargan. g'

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy manbalar tashkil etadi: 2024, 2025 va 2026-yillar uchun Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar (O'zbekiston Respublikasi, 2023; 2024; 2025), dasturiy budjet ko'rsatkichlarini belgilovchi hukumat qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2026), Milliy statistika qo'mitasining oliy ta'lim bo'yicha statistik press-relizi (Milliy statistika qo'mitasi, 2026) hamda o'rta muddatli fiskal hujjat (Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025).

Tahlilda uchta usul qo'llanildi. Birinchidan, deflyatsiya usuli: nominal moliyaviy oqimlar iste'mol narxlari indeksleri yordamida 2024-yil narxlariga keltirildi. Deflyator sifatida 2025-yil uchun 7,3 foiz, 2026-yil uchun Markaziy bankning 6,5 foizlik prognozi qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026). Ikkinchidan, nisbiy ko'rsatkichlar usuli: yillik moliyaviy hajm tegishli o'quv yilidagi talabalar soniga bo'linib, investitsiya intensivligi hisoblandi. Uchinchidan, indeks usuli: turli qamrovga ega ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun 2024-yil bazis sifatida qabul qilinib, zanjirli indekslar qurildi.

Tadqiqotning metodologik cheklovi shundan iboratki, vazirlik budjeti oliy ta'lim bilan bir qatorda professional ta'lim va ilmiy tashkilotlar xarajatlarini ham qamrab oladi. Shu sababli bir talabaga to'g'ri keladigan mablag' ko'rsatkichi shartli xarakterga ega bo'lib, u mutlaq qiymat emas, dinamik tendensiyaning baholash vositasi sifatida talqin qilinadi.

NATIJALAR

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar 2024-yildagi 5 778,0 mlrd so'mdan 2026-yilda 6 363,7 mlrd so'mga yetgan. Ikki yillik nominal o'sish 10,1 foizni tashkil etadi, biroq xarajat moddalar bo'yicha o'zgarish notekis kechgan (1-jadval).


1-jadval. **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar tarkibi, mlrd so'm**

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	2026-yil	O'zgarish
Jami ajratilgan mablag'	5 778,0	6 116,2	6 363,7	+10,1%

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	2026-yil	O'zgarish
Joriy xarajatlar	4 705,8	5 458,9	5 647,4	+20,0%
Rivojlantirish dasturlari	422,0	477,0	893,2	2,1 baravar
Xotin-qizlar magistratura kontrakti	120,0	125,0	125,0	+4,2%
Jami mablag', 2024-yil narxlarida	5 778,0	5 700,1	5 568,8	-3,6%

Manba: O'zbekiston Respublikasi (2023; 2024; 2025) Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Deflyatsiya natijalari investitsiyalarning real hajmi qisqarganini ko'rsatadi: 2024-yil narxlarida mablag'lar 5 778,0 mlrd so'mdan 5 568,8 mlrd so'mga tushgan (1-rasm). Boshqacha aytganda, nominal +10,1 foizlik o'sish real -3,6 foizlik qisqarishni yashiradi.



1-rasm. Vazirlik tizimiga ajratilgan mablag'larning nominal va real dinamikasi

Manba: Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar va inflyatsiya ko'rsatkichlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ayni davrda tizimning miqdoriy bazasi keskin kengaydi. 2021/2022–2025/2026-o'quv yillarida oliy ta'lim tashkilotlari soni 39,6 foizga, talabalar soni 89,9 foizga, bitiruvchilar soni esa 2,17 baravarga oshgan (2-jadval). Eng yuqori sur'at nodavlat sektorda kuzatilib, uning ulushi 11,0 foizdan 45,1 foizga yetgan.


2-jadval

Oliy ta'lim tizimining institutsional va kontingent ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2021/22	2025/26	O'zgarish
Oliy ta'lim tashkilotlari, ta	154	215	+39,6%
shundan nodavlat OTMLar, ta	17	97	5,7 baravar
Qabul, ming nafar	235,9	409,7	+73,7%
Talabalar, ming nafar	808,4	1 535,0	+89,9%
Magistratura talabalari, ming nafar	33,4	56,3	+68,6%
Professor-o'qituvchilar, ming nafar	37,4	54,9	+46,8%
Bitiruvchilar, ming nafar	103,9	225,9	2,17 baravar

Manba: Milliy statistika qo'mitasi (2026) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Bitiruvchilar ko'rsatkichi 2021 va 2025-yillar bo'yicha keltirilgan.

Moliyaviy va miqdoriy ko'rsatkichlarni birlashtirish investitsiya intensivligining pasayishini ochib beradi. Vazirlik tizimiga ajratilgan yillik mablag'ning tegishli o'quv yilidagi talabalar soniga nisbati nominal hisobda 4,396 mln so'mdan 4,146 mln so'mga, 2024-yil narxlarida esa 4,396 mln so'mdan 3,628 mln so'mga, ya'ni 17,5 foizga kamaygan. Bir vaqtning o'zida bir professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni 21,6 nafardan 28,0 nafarga oshgan (2-rasm).




2-rasm. Investitsiya intensivligi va o'quv yuklamasining dinamikasi

Manba: Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar va Milliy statistika qo'mitasi (2026) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Uchinchi natija tarkibiy xarakterga ega. Butun ta'lim tizimiga davlat xarajatlari real hisobda o'sishda davom etayotgani holda, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimiga

yo'naltirilgan mablag'lar real qisqarmoqda. 2024-yil bazis sifatida qabul qilinganda, 2026-yilda ta'limga jami xarajatlar indeksi 109,7 ni, vazirlik tizimiga mablag'lar indeksi 96,4 ni, talabalar soni indeksi esa 116,8 ni tashkil etadi (3-rasm).



3-rasm. Talabalar kontingenti va real moliyalashtirish indekslarining divergentsiyasi (2024-yil = 100)

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2025), Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlar va Milliy statistika qo'mitasi (2026) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Muhokama

Olingan natijalar oliy ta'lim moliyalashtirishini baholashdagi uslubiy muammoni ochib beradi. Nominal ko'rsatkichlarga tayangan tahlil investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi to'g'risida xulosa beradi; deflyatsiya va kontingentga nisbatlash esa qarama-qarshi manzarani ko'rsatadi. Ushbu farq tasodifiy emas: u qamrovni kengaytirishga yo'naltirilgan ekstensiv o'sish modelining tabiiy natijasidir. Talabalar soni moliyaviy resurslardan tezroq o'sganda, tizimning umumiy hajmi kengaysa-da, bir talabaga to'g'ri keladigan resurs qisqaradi.

Bu holat inson kapitali nazariyasi nuqtayi nazaridan muhim oqibatga ega. Ta'lim investitsiyalarining qaytimi shakllantirilgan kompetensiyalar sifati bilan belgilanadi, kompetensiya sifati esa bir talabaga to'g'ri keladigan pedagogik va moddiy resurs bilan bevosita bog'liq. O'quv yuklamasining 21,6 nafdardan 28,0 nafarga oshishi individual ishlash, amaliy mashg'ulot va ilmiy rahbarlik imkoniyatini toraytiradi. Demak, real intensivlikning pasayishi kelgusida investitsiyalar rentabelligining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Tarkibiy divergentsiya tahlili yana bir muhim xulosaga olib keladi: davlat xarajatlarning umumiy o'sishi oliy ta'lim bo'g'inini avtomatik qamrab olmaydi. Ta'limga jami xarajatlar real 9,7 foizga o'sgani holda vazirlik tizimiga mablag'lar 3,6 foizga qisqargani davlat investitsiyalari tarkibida oliy ta'limning nisbiy ulushi kamayayotganini bildiradi. Bu tendensiya bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish maqsadlari bilan uyg'unlashmaydi.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan uchta yo'nalishda qo'llanilishi mumkin. Birinchidan, budget rejalashtirishda "bir talabaga real xarajat" ko'rsatkichini maqsadli parametr sifatida belgilash. Ikkinchidan, qabul parametrlarini kengaytirish qarorlarini resurs ta'minoti prognozi bilan bog'lash. Uchinchidan, moliyalashtirish samaradorligini baholashda nominal hajm o'rniga real intensivlik va yuklama ko'rsatkichlaridan foydalanish.

XULOSA

Tadqiqot ilgari surilgan gipotezani tasdiqladi. 2024–2026-yillarda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimiga yo'naltirilgan davlat investitsiyalari nominal hisobda 10,1 foizga o'sgan, ammo 2024-yil narxlarida 3,6 foizga qisqargan. Bir talabaga to'g'ri keladigan real budget mablag'i 4,396 mln so'mdan 3,628 mln so'mga, ya'ni 17,5 foizga kamaygan, o'quv yuklamasi esa 21,6 nafardan 28,0 nafarga oshgan.

Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosa shakllantiriladi: O'zbekiston oliy ta'lim tizimida inson kapitaliga investitsiyalar ekstensiv bosqichda bo'lib, moliyaviy oqimlarning nominal o'sishi kontingent kengayishi va inflyatsiya ta'sirini qoplamayotgani sababli investitsiyalarning real intensivligi pasaymoqda. Mazkur tendensiyaning bartaraf etmasdan turib ta'lim sifati va investitsiyalar rentabelligini oshirish maqsadlariga erishib bo'lmaydi. Keyingi tadqiqotlarda bir talabaga real xarajat ko'rsatkichi bilan bitiruvchilar bandligi va daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. University of Chicago Press.
2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Fiskal strategiya 2026–2028. Toshkent. https://www.imv.uz/media/filestore/fiskal_strategiya_2026-2028_.pdf
3. Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim: statistik press-reliz. Toshkent. https://stat.uz/img/news/olij-talim-lotin_p44563.pdf
4. O'zbekiston Respublikasi. (2023). 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida: O'RQ-886-son Qonun. <https://lex.uz/uz/docs/-6707765>
5. O'zbekiston Respublikasi. (2024). 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida: O'RQ-1011-son Qonun. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>
6. O'zbekiston Respublikasi. (2025). 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida: O'RQ-1105-son Qonun. <https://lex.uz/uz/docs/-7949060>
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Asosiy stavka bo'yicha matbuot xabari (17-iyun). <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/publications/press-releases/3997757/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-388-son qaror. <https://lex.uz/uz/docs/-7959569>

9. Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to investment in education: A decennial review of the global literature. *Education Economics*, 26(5), 445–458. <https://doi.org/10.1080/09645292.2018.1484426>
10. Raxmatullayev, J. M. (2025). Oliy ta'lim muassasalarini davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyaviy ta'minlash amaliyoti tahlili. *Moliyaviy texnologiyalar*, (4), 1–12. <https://fintech.tsue.uz/>